



O'SMIRLAR MA'NAVYIY-AXLOQIY SIFATLARINI DIAGNOSTIKA QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Muyassarova Dilnoza Djabbarovna

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlardagi ma'naviyat masalasining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, o'smir shaxsi ma'naviyati va shaxsiy sifatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, bilan bog'liq tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, o'smir, ijtimoiy, shaxs sifatlari, tarbiya, milliy qadriyatlar.

Аннотация: В статье рассматривается исследование проявления и развития проблемы духовности у подростков и совершенствования ее специфических социально-психологических факторов. Представлены результаты исследования.

Ключевые слова: духовность, подросток, социальные, личностные качества, образование, национальные ценности.

Abstract: This article discusses the research of the manifestation and development of the issue of spirituality in adolescents and the improvement of its specific socio-psychological factors. The results of the research are presented.

Key words: spirituality, adolescent, social, personality qualities, education, national values.

KIRISH

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma'naviyat masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanish muammosiga ulkan ahamiyat berib kelinmoqda. Ma'naviyatni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamiyat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida shunday fikrlarni aytdilar: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatdir". Yig'ilishda qayd etilishicha, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda.

Bir qancha adabiyotlarda ma'naviyat masalalariga alohida to'xtalib o'tilganligi shu bilan bir qatorda davlatimiz rahbarining ma'naviyatga doir farmonlari chiqishi va



qarorlari qabul qilinishi, mamlakatimizda Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tuzilishi, Ma'naviyat targ'ibot Markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi va ularning joylardagi bo'linmalari tashkil etilishi va faol ishlab turishi, mamlakatimizda falsafa, madaniyatshunoslik, ma'naviyat asoslari, Tarbiya, pedagogika singari fanlar mutaxassislari tomonidan yuzlab monografiyalar, risolalar, maqolalar tayyorlanayotgani va chop etilayotgani, shu fanlar bo'yicha ma'naviyat mavzusiga aloqador o'nlab dissertatsiyalar tayyorlanayotgani mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga berilayotgan e'tiborning ko'lamidan dalolat beradi. Ayni paytda psixologiya fanida ma'naviyat masalalariga bag'ishlab tayyorlangan va chop etilgan monografiya va risolalarning juda ham kam ekanligi, dissertatsiyalarning deyarli yo'qligi ko'zga tashlanadi. Holbuki, ma'naviyat va uning shakllanishidagi psixologik jihatlarni tadqiq qilish boshqa fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va mamlakatimizda shu sohada olib borilayotgan amaliy ishlarning samaradorligini oshirishga jiddiy turtki berishi mumkin.

ASOSIY QISM

Ma'naviy rivojlanish bolaning o'zini muhitdan ajratish va "Men"i shakllanishi jarayoni bilan bog'liq. Bolalik davrida shaxs rivojlanishining asosiy yo'nalishi o'zini o'zgalardan alohida shaxs ekanini anglashga yo'naltirilgan bo'lsa, o'smirlik davrida bu yo'nalish yuqori cho'qqisiga yetadi va endi u o'zining o'zgalari bilan bo'lgan umumiy xususiyatlarini anglashga qaratiladi. Mana shu bosqichda shaxsning ichki shaxsiy me'yorlari bilan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlar o'rtasidagi tafovutlar ravshanlashib boradi. O'smirning qanday shaxs bo'lib yetilishi ana shu tafovutlarni qay darajada anglashi va bu tafovutlarni bartaraf etish yoki chuqurlashtirishga intilishi bilan belgilanadi.

Xulq-atvor ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi ekani tufayli o'smir ma'naviyatini rivojlanish darajasini aniqlash uchun, jumladan uning xulq-atvor ideallari va me'yorlarini aniqlash lozim bo'ladi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida sotsialistik tuzum qadriyatlarini eng oliy qadriyatlar deb talqin qilishga va ularni yoshlar ongiga singdirishga harakat qilingan. Hozirgi davr psixologiyasida esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar eng oliy qadriyatlardan ekani e'tirof etilmoqda.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi va insonga, insoniyatga xizmat qiladi. Bunday qadriyatlar butun insoniyat tomonidan yaxshilik sifatida baholanadi. Bu qadriyatlar oliy qadriyatlar hisoblanadi. Ular shaxs, jumladan, o'smir ongida qay darajada dominant ekani uning qay darajada progressiv shaxs ekanini belgilaydi. Shu bilan birga, bu qadriyatlarining o'zlashtirilganlik darajasi o'smirning umumiy yo'naltirilganligini belgilaydi.

Umuminsoniy qadriyat ko'p qirrali murakkab hodisa bo'lib, o'z tarkibiga inson mavjudligining turli jihatlarini, voqelik bilan turli-tuman aloqalarni, shuningdek, hayot faoliyati, insonlarning o'ziga va atrof-muhit, jamiyatdagi insonlarga bo'lgan munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini qamrab oladi.



Umuminsoniy ma'naviy madaniyat va qadriyatlarni o'zlashtirish va amalda ularga itoat qilish darajasi shaxs ma'naviyatining eng muhim mezonlari va ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan qadriyatlar insonning dunyoqarashi va e'tiqodini, ular orqali uning xulq-atvori, yurish-turishini, axloq-odobi va yashash tarzini belgilaydi. Lekin bu qadriyatlar inson hayotiga alohida-alohida tarzda emas balki tizim holida ta'sir o'tkazadi. Qadriyatlar ierarxiyasi to'satdan va qisqa muddatda emas, balki uzoq davr davomida shakllanadi.

Insonning har bir xatti-harakati asosida atrofdagi voqea-hodisalarga beradigan bahosi yotadi. Bu bahoning yo'nalishi va mohiyatini unda mavjud bo'lgan qadriyatlar belgilaydi. Chunki, har qanday baho muayyan qadriyat nuqtai nazaridan beriladi.

Inson qadriyatlarining tizim holida bo'lishi uning harakatlari, xulq-atvorini belgilaydigan motivatsiyaning zarur sharti hisoblanadi. Insonning turli-tuman vaziyatlarda va sharoitlarda amalga oshiradigan xatti-harakatlarini o'zaro bog'lab turuvchi halqa ham qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

O'smirning ma'naviy rivojlanishida uchta asosiy tomonini ko'rsatish mumkin:

1. Ma'naviy salohiyatning intellekt, xotira, tafakkur, idrok, tasavvur, xayol singari psixik hodisalarda namoyon bo'lishi.
2. O'smir ma'naviy olamining ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali boyib borishi.
3. O'smir faoliyatining ijodiy xarakterga ega ekani va bu faoliyat uning o'zini-o'zi namoyon qilishiga olib kelishi.

Bu uch tomon o'zaro uzviy bog'langan va tegishli sharoitlarda o'smir shaxsining ma'naviy takomilini belgilab beradi. Ma'naviyat psixologiyasiga oid adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz o'smir ma'naviy rivojlanishida uchta asosiy tarkibiy qismni ajratib ko'rsatishni lozim topdik. Bular quyidagilar: kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari.

Ma'naviyat har bir komponentining rivojlanganlik darajasi quyidagi mezonlarga qarab belgilanadi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga mosligi;
2. Shaxs tomonidan umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi roli;
3. Yangi ma'naviy qadriyatlarni yaratishdagi roli;
4. Ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishdagi roli;
5. Shaxsning barqaror pozitsiyasini shakllantirishdagi roli;
6. Ma'naviy qadriyatlarni tanqidiy anglashdagi roli.

Komponentlarning har biri murakkab tarkibiy qismlar va sifatlardan tashkil topgan bo'lib o'zgaruvchanlik xususiyatiga ham ega. Masalan kognitiv komponent o'z ichiga bilimlar, bilimlarni egallash usullari; narsa-hodisalarning mohiyatiga yeta bilish, ularning sabablari va oqibatlarini ko'ra bilish, eng muhim qismni ajrata bilish kabilarni qamrab oladi.



Kognitiv komponentning yetakchi elementi bilim xisoblanadi. Bilim tayyor xodisa emas, balki ma'naviyat maxsuli bo'lib, uning bunyod etilishi mavjud madaniyat imkoniyatlari bilan bog'liq. Bu imkoniyatlar turli-tuman bo'lib, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bilimlarni yaratish, uzatish va egallash bilish subyekting aktiv faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini anglashning yangi darajasiga intellektual rivojlanishning muayyan darajasida erishiladi. Bunday darajaning vujudga kelishi o'qish, izlanish, yangi bilimlarni o'rganish jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan nazariy tafakkurga asoslanadi. Nazariy tafakkur yangi bilim mazmunini egallash, yangi qiziqishlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kognitiv qiziqishlarning yangi tipini shakllantiradi, ichki refleksiyaning vujudga kelishi va rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ma'naviy rivojlanish jarayoniga turtki beradi.

Ma'naviy rivojlanishning emotsional komponenti shaxsning o'ziga, boshqa odamlarga, voqea-hodisalarga ma'naviy, xulq-atvor nuqtai nazardan yondashish va emotsional idrok qilishini anglatadi. Ijobiy emotsional baho ma'naviy qadriyatlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Emotsional komponentning muhim elementlaridan biri boshqa shaxsni empatik tushunish va uning qabul qilinishidan iborat. S.L.Rubinshteyn shaxsning boshqa shaxslarga munosabat usuli uning eng muxim xarakteristikasi hisoblanadi deb yozgan edi. "inson mavjudligining eng muhim shartlaridan biri boshqa insonlarning mavjudligidir. Boshqa insonlarga munosabat inson hayotining negizini tashkil qiladi. Inson qalbi uning boshqa insonlarga munosabatlari bilan bog'liq narsa. Uning qadri to'laligicha boshqa insonlarga qanday munosabat o'rnatishga layoqatligi bilan o'lchanadi. Insonning boshqa insonlarga munosabatini psixologik tahlil qilish haqiqiy psixologiyaning negizini tashkil etadi".

Jahon psixologiya faniga jumladan, A.Mayers, Dj.Milgram, Saks, M.Rokich. L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalarning nazariy ishlanmalariga asoslanib, ma'naviy rivojlanishning uch darajasini belgilashni lozim topdik:

1. Quyi daraja. Ma'naviy qadriyatlar to'g'risida alohida uzuq-yuluq tavsurlarning paydo bo'lishi, lekin ularning interiorizatsiyalashmagani, faoliyat va xatti-harakatlarda namoyon bo'lmasligi bilan xarakterlanadi.
2. O'rta daraja. Ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurning kengayishi va qisman interiorizatsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Biroq ularning shaxs faoliyatida namoyon bo'lishi kamdan-kam holatlarda yuz beradi, yoki umuman yuz bermaydi.
3. Yuqori daraja. Ma'naviy qadriyatlar to'g'risida keng tasavvurning mavjudligi, ularning to'la interiorizatsiyalashuvi, bilimlarning e'tiqodga aylanishi xamda individ faoliyatida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib ma'naviy rivojlanish darajasi qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurning shakllangani, ularning interiorizatsiyalashuvi va faoliyatda namoyon bo'lish darajasi bilan belgilanadi.

XULOSA



O'smirlarni ma'naviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga oshirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning o'smirlilik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviyatning negizi bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi. Shaxsning ma'naviy rivojlanishiga mana shu davrda ozgina e'tiborsizlik qilinsa, u aksilijtimoiy yo'nalishga burilib ketishi, jamiyatimiz uchun yot bo'lgan mafkuralar, g'oyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Ma'naviy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun ma'naviyatning metodologik va umumiy jihatlarini aniqlab olish zarur. Bu yo'nalishda jahon va mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirova A.T. "O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi", p.f.n olish uchun avtoreferat. Toshkent-2007.
2. Muxsueva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nomzodi: 13.00.06 / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi TDPU. – T., 2005. 14-bet.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. G'oziyev E. umumiy psixologiya. Toshkent: "O'qituvchi". 2002, p. 16.
6. Pedagogik diagnostika va tuzatish. Abdullayeva S. A., Roziyeva D. I. Toshkent:, 2018, 117 bet.